O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY- SIYOSIY
FANLAR FAKULTETI

Ro'yxatga olindi:
№ 60920100 SOT1310
SOT1410
2024 yil "10" 21

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____
R.I.Xalmuradov
2024 yil "__"_____

"SOTSIOLOGIYA"

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	900 000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;
Ta'lim sohasi:	920 000 – Ijtimoiy ta'minot;
Ta'lim yo'nalishi:	60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha).

Samarqand-2024

Fan/modul kodi SOT1310 (I qism) SOT1410 (II qism)	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	ECTS – Kreditlar 6+4=10
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili- O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4 soat

	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
1.	Sotsiologiya	80+52=132	100+68=168	180+120=300

Fanning maqsadi (FM)	
1	**Fanni o'qitishdan maqsad va vazifalari** - Sotsiologiya ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida muhim o'rinni egallaydi. Sotsiologik ta'limning muhim funksiyalaridan biri – bu jamiyat a'zolarida sotsial muammolarni tushunish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash va bartaraf etish yo'llari hamda imkoniyatlarini qidirib topish ko'nimalarini shakllantirishdan iboratdir. Sotsiologiya fani jamiyatda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni shunchaki qayd etish bilan shug'ullanmaydi, balki ularning asl mohiyati va mazmunini atroflicha ochib beradi. Zero, sotsiologiya ijtimoiy fanlar orasida o'z tadqiqotlarining aniqligi va amaliyligi, tahlil qilayotgan masalalarni tajribalar asosida o'rganish imkoniyatlari mavjudligi bilan alohida ajralib turadi. Sotsiologiya faqat hozirgi ijtimoiy hodisalar tahliliga to'laqonli javob berishi bilangina cheklanmasdan, balki ularning istiqboliy o'zgarish darajasi xususida ham ilmiy bashoratlarni ilgari sura oladi. Ana shu jihatdan qaraganda, sotsiologiya fani nazariyasi, amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o'rganib chiqish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy e'tibor amaliy faoliyatni olib borishda sosiologik bilim va usullardan foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqishga, O'zbekiston va jahondagi sotsial muammolarga nisbatan qiziqishning oshganligiga qaratiladi.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
Sotsiologiya I qism	
M1.	**Sotsiologiyaning fan sifatida shakllanish tarixi (4 s)** Ma'ruzada quyidagi masalalar bo'yicha tushunchalar beriladi: Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. O.Kont - pozitiv Sotsiologiyaning asoschisi, uning Sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejalari. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy talimotlari (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy Sotsiologiyaning muhim manbaalari sifatida tahlil etiladi.
M2.	**Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari** Ushbu ma'ruzada Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan munosabati. Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya va tarix. Sotsiologiya va psixologiya, demografiya, genetika. Sotsial geografiya. Sotsiologiya va tabiiy hamda aniq fanlar. Sotsiologiyaning fanlar tizimsidagi tutgan o'ziga xos o'rni tahlil etiladi.
M3.	**Sotsiologiyaning obyekti va predmeti (4 s)**

	Ushbu ma'ruzada Sotsiologiyaning obyekti va predmeti muammosi. Sotsiologiyaning turli yo'nalishlarida fanning obyekti va predmeti muammosini yechish yo'lidagi g'oyaviy-nazariy izlanishlari tahlil etiladi. Shuningdek, sotsiologiyaning obyekti, sotsiologiyaning predmeti, sotsial munosabatlar, sotsial harakat, insoniy birlik, ijtimoiy shartnoma, subyekt, maqom, rol, sotsiologiya qonunlari, sotsial institut, gumanitar fanlar. kabi tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M4.	**Sotsioogiyaning qonunlari.** Ushbu ma'ruzada qonun, tabiat va jamiyat qonunlari, axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy qonunlar, tabiat qonuunlari va jamiyat qonunlari o'rtasidagi nomuvofiqlar, tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi
M5.	**Sotsiologiya strukturasi (4 s)** Ushbu ma'ruzada struktura tushunchasi va uning ahamiyati. Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Sotsiologiya strukturasi elementlarining rivojlanish dinamikasi. Fundamental (asosiy) Sotsiologiya. Jamiyat hayotining fundamental muammolarini sosiologik tahlili haqida ma'lumotlar beriladi.
M6.	**Sotsiologiyaning alohida tarmoqlari** Ushbu ma'ruzada Nazariy va amaliy Sotsiologiya: ularning umumiyligi va farqi. Sotsiologiya tarixida universal nazariyalarni ishlab chiqishga bo'lgan intilishlar. empirik Sotsiologiyaning bunyod bo'lishi va uni Sotsiologiya nazariyasi rivojiga tasiri. R.Mertonning "o'rta darajali nazariyasi. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar. Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi
M7.	**Sotsiologiyaning funksiyalari** Ushbu ma'ruzada sotsiologiya fanining o'ziga xos funksiyalari: bilishga, qayta o'zgartiruvchilikka, prognozga (bashoratga), axborotga, dunyoqarashga va boshqaruvga oid funksiyalar haqida ma'lumotlar beriladi. Funksiya, vazifa, asosiy kategoriya, maqsad va vazifalarni tasniflash tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M8.	**Jamiyat yaxlit tizim sifatida** Ushbu ma'ruzada Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi. Sharq mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari. G'arb Sotsiologiyasi asoschilarining ishlarida ijtimoiylikning tariflanishi. M. Veber konsepsiyasida totalitar jamiyat, uning belgilari va ijtimoiy-siyosiy tashkil etilish usullari.
M9.	**Jamiyatning turkumlari va tasniflari** Ushbu ma'ruzada Jamiyat va davlat. Jamiyatning mexanistik, organistik va boshqa tarzlarda tariflanishi. T.Parsons nazariyasida jamiyat tushunchasi, uning to'rt funksiyali paradigmasi. Hozirgi jamiyatning turlicha tariflari. Ananaviy jamiyat va Industrial jamiyat. Ularning belgilari. "Mo'l-ko'llik jamiyati", "Ochiq jamiyat", "Yopiq jamiyat", "Istemol jamiyati", "Postindustrial jamiyat" va boshqa tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M10.	**Zamonaviy jamiyatning sotsiomadaniy munosabatlari muammolar** Ushbu ma'ruzada jamiyat, tizim, sotsial tizim, ostki tizimlar, ijtirtjoiylik, n*o'zaro sotsial ta'sir, sotsial aloqa, kommunikatsiya, an'anaviy jamiyat, mo'l-ko'llik jamiyati, iste'mol jamiyati, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, axborot jamiyati, postmodernistik jamiyat, sotsiomadaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi. XX va XXI asr madaniy-tarixiy va siyosiy tizimlarni tariflash mezonlari tahlil etiladi
M11.	**Sotsial guruhlar va birliklar (4 s)** Ushbu ma'ruzada hozirgi davr jamiyatida rasmiy va norasmiy ravishda paydo bo'ladigan kichik guruhlardagi odamlarning o'zaro aloqalari va munosabatlari barcha gumanitar-ijtimoiy, ayniqsa, sotsiologiya va psixologiya kabi fanlar tomonidan

	chuqur o'iganila boshlandi. Sotsiologiya fanida sotsial guruhlaxga doir turli nazariyalar haqida ma'lumotlar beriladi Tayanch so'zlar: sotsietal, sotsial guruh, birlamchi guruh, ikkilamchi guruh, kichik guruh, guruhiy o'zaro ta'sir, kvaziguruh, guruhiy dinamika, guruhiy psixoterapiya, sotsiometriya, guruhiy jipslashganlik, gumhdagi yetakchilik, avtoritet, sotsial birlik, milliy-etnik birlik
M12.	**Sotsial institutlar** Ushbu ma'ruzada Sotsiologiyada Sotsial institut tushunchasi. Sotsial institut belgilari Sotsial institutning asosiy vazifalari. Jamiyat hayotida Sotsial institutlarning o'rni Oila va nikoh. Iqtisodiy institutlar. Ularning ko'rinishlari va vazifalari Iqtisodiy guruhlar va iqtisodiy hatti-harakat. Ishlab chiqarish, uning tarixiy shakllari va vazifalari. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va kasb. Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik. Davlat va jamiyatning siyosiy tizimi. O'zbekiston sharoitlarida demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish O'zbekistonda huquqiy ongning o'ziga xosligi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari tahlil etiladi.
M13.	**Sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta'lim, huquq va boshqalar.** Ushbu ma'ruzada institut, sotsial institut, rasmiy institut, norasmiy institut, jamiyatning hayotiy faoliyat sohalari, institutlashuv, sotsial institutlaming strukturasi, sotsial institutlaming funksiyalari, iqtisodiy sotsial institut, oila sotsial instituti, ta'lim sotsial instituti, din sotsial instituti tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M14.	**Shaxs sotsiologiyasi** Ushbu ma'ruzada shaxs, inson, individ, individuum, induviduallik, madaniyat, ehtiyojlar stmkturasi, ehtiyojlar piramidasi, o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi baholash, Men-konsepsiya, shaxs turlari, shaxs stmkturasi, temperament, motivlashish, shaxs maqomi, shaxs roli, sotsiallashuv tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M15.	**Deviant xulq-atvor** Ushbu ma'ruzada Deviant xulq-atvor (og'ma xulq-atvor) tushunchasi. Deviant xulq-atvor muammosini o'rganish Sotsiologiyadagi ilmiy yo'nalish sifatida. Deviant xulq-atvor turlari: qonunni buzish, o'z-o'zini o'ldirish, giyohvandlik, alkogolizm va boshqalar. E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning deviant xulq-atvor nazariyalari, Z.Freyd va E.Frommlarning destruktivlik (strukturani buzilishi) nazariyalari haqida ma'lumotlar beriladi.
M16.	**Sotsial nazorat** Ushbu ma'ruzada Sotsial nazorat. Sotsial nazorat kishilar hatti-harakatini tartibga solish mexanizmi sifatida. P.Bergerning Sotsial nazorat to'g'risidagi talimoti Sotsial nazorat elementlari: meyorlar va sanksiyalar. Sotsial sanksiyalar turlari: pozitiv va negativ, rasmiy va norasmiy tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi. Sotsial nazorat individ va guruhlarning m e'yor va sanksiyalami o'z ichiga olgan xulqini tartibga solish mexanizmi sifatida tahlil etiladi.
Jami	**40 soat ma'ruza**
	Sotsiologiya II qism
M17.	**Sotsial me'yorlar va jamoatchilik fikri** Ushbu ma'ruzada me'yorlar, sotsial me'yorlar, qadriyatlar, madaniy me'yorlar, o'zini o'zi nazorat qilish, jamoatchilik fikri tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi Shuningdek bolalarning sotsial me'yorlar va qadriyatlami o'zlashtirishi, manfaatlar, sotsial me'yorlar, rasm-rusumlar, odatlar va xulqlaming umumiyligi. Sotsial me'yorlar guruh a'zolarining qabul qilish darajasi bo'yicha differetsialashishi tahlil etiladi.
M18.	**Jamiyat sotsial strukturasi** Ushbu ma'ruzada Sotsial struktura tushunchasi Kishilik jamiyati tarixida Sotsial

	struktura muammosining talqini. Sotsial struktura to'g'risidagi antik davr mutafakkirlarining talimotlari. Jamiyat Sotsial strukturasi rivojining zamonaviy tendensiyalari. Bozor munosabatlari sharoitida Sotsial strukturaning o'zgarishi kabi tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M19.	**Sotsial stratifikasiya nazariyasi** Ushbu ma'ruzada Sotsial stratifikasiya va Sotsial mobillik nazariyasi sinfiylik talimotiga qarshi g'oya sifatida. Zamonaviy O'zbekistonda Sotsial stratifikasiya va Sotsial mobillik jarayonini kechishi tahlil etiladi. P. Sorokinning Sotsial stratifikasiya to'g'risidagi nazariyasi. Stratifikasiya asoslari va mezonlari iqtisodiy holat, mavqye, talim va hokimiyat. Stratifikasiya va Sotsial differensiya. Stratifikasion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar bilan bog'liq masalalar yoritilgan.
M20.	**Sotsial mobillik (harakatchanlik) va marginallik nazariyalari** Ushbu ma'ruzada struktura, sotsial, sotsial struktura, jamiyat, fuqarolik jamiyati, sotsial qatlamlar, sinf, sotsial guruhlar, elita, o'rta qatlam (sinf), quyiqatlam, strata, stratifikatsiya, stratifikatsiyaviy struktura, sotsial harakatchanlik, marginallik, migratsiya, sotsial harakatchanlik turlari kabi tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M21.	**Sotsial munosabatlar tushunchasi va turlari** Ushbu ma'ruzada Sotsial munosabatlar tushunchasi. Sotsial munosabat turlari: hamfikrlik, kooperasiya, konfliktlar, kurash, begonalashuv, befarqlik, krizis, kamsitish, notenglik. Sotsial munosabatlar tizimidagi plyuralizm. Sotsial munosabatlarning asoslari. Hamfikrlik, barqarorlik va kooperasiya - Sotsial tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashining omillari sifatida. E.Dyurkgeym konsepsiyasida hamfikrlik tushunchasi. Kooperasiya ijtimoiylikning asosiy belgisi sifatida. Pozitivizm Sotsiologiyasida barqarorlik va inqiroz ongi. Barqarorlikni strukturaviy-funksional asoslash tushunchalari tahlil etiladi.
M22.	**Sotsial munosabatlar tizimida plyuralizm, notenglik va tenglikning amal qilishi** Ushbu ma'ruzada jamiyat, sotsial aloqalar, sotsial munosabatlar, sotsial tizim, sotsietallik, sotsial birlik, sotsial qatlam, sotsial gumh, hamfikrlik, mehnat taqsimoti, kooperatsiya, ixtiloflar, kurash, begonalashuv, sotsial anomiya, befarqlik, notenglik, tenglik, siyosiy tizim, sotsial institutlar, plyuralizm, mulkdorlar qatlami, sotsial barqarorlik, beqaroriik, inqiroz, milliy g'oya kabi tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M23.	**Sotsial barqarorlik va inqiroz — jamiyatning muhim sotsial munosabatlari** Ushbu ma'ruzada jamiyat, sotsial aloqalar, sotsial munosabatlar, sotsial tizim, sotsietallik, sotsial birlik, sotsial qatlam, sotsial gumh, hamfikrlik, mehnat taqsimoti, kooperatsiya, ixtiloflar, kurash, begonalashuv, sotsial anomiya, befarqlik, notenglik, tenglik, siyosiy tizim, sotsial institutlar, plyuralizm, mulkdorlar qatlami, sotsial barqarorlik, beqaroriik, inqiroz, milliy g'oya kabi tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M24.	**Ijtimoiy taraqqiyot sosiologiyasi** Ushbu ma'ruzada Sotsiologiyada ijtimoiy taraqqiyot tushunchasi. Ijtimoiy o'zgarish va taraqqiyot tushunchalarining nisbati. Ijtimoiy progress, regress, evolyusiya va revolyusiya ijtimoiy o'zgarishlarning shakli sifatida. Ijtimoiy progress muammolari. Ijtimoiy taraqqiyot shakllari: evolyusion, revolyusion va reformistik taraqqiyotlar. evolyusion rivojlanish va uning afzalliklari. Sotsial revolyusiyalar va ularning salbiy oqibatlari. Sotsial reformalar va ularning turlari. O'zbek rivojlanish modelida milliy mentalitetning o'rni. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida milliy tafakkur tarzi ahamiyati tahlil etiladi.
M25.	**Sotsial menejment va uning xususiyatlari.** Ushbu ma'ruzada sotsial rivojlanish, sotsial taraqqiyot (progress), modernizatsiya,

	regress, evolyutsiya, revoyutsiya (inqilob), islohot, sotsial boshqaruv, sotsial menejment, globalizm, lokallik, glokalizm, jahon iqtisodiy tizimi, moliyaviy inqiroz, iqtisodiy inqiroz, sotsial inqiroz, fuqarolik jamiyati, «o'zbek modeli», «o'zbek modeli»ning besh tamoyili kabi tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi
M26.	**Globalizm sotsial hodisa sifatida. O'zbekistonning globalizm sharoitida rivojlanishi** Ushbu ma'ruzada sotsial jarayon, sotsial o'zgarish, sotsial dinamika, sotsial rivojlanish, sotsial taraqqiyot (progress), modernizatsiya, regress, evolyutsiya, revoyutsiya (inqilob), islohot, sotsial boshqaruv, sotsial menejment, globalizm, lokallik, glokalizm, jahon iqtisodiy tizimi, moliyaviy inqiroz, iqtisodiy inqiroz, sotsial inqiroz, fuqarolik jamiyati, «o'zbek modeli», «o'zbek modeli»ning besh tamoyili kabi tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.
M27.	**Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari** Ushbu ma'ruzada Sotsiologik tadqiqot dasturi. Dasturning strukturasi: nazariy - metodologik va metodik bo'limlar. Dasturning asosiy elementlari: muammoni tariflash; tadqiqot maqsadi va vazifalarini, obyekti va predmetini aniqlash; obyektni tizimli tahlil qilish, tushunchalarni nazariy va empirik izohlash, gipotezalarni ifodalash; malumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish.
M28.	**Sotsiologiyadagi ma'lumotlarni to'plash metodlarining umumiy tasnifi** Ushbu ma'ruzada so'rov, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish metodlari, ularning o'ziga xosligi. So'rov metodi. So'rovning turlari. Anketa (so'rov varaqasi) so'rov metodining markaziy elementi sifatida. Anketa tuzish texnikasi. Anketaning umumiy tuzilishi. Anketadagi savollarning turlari, asosiy talablar. Og'zaki so'rov va uning xususiyatlari. Intervyu olish uslubi. Kuzatish metodi va uning mohiyati. Kuzatish xillari. Kuzatishning aniqligi muammosi va uni taminlash usullari. Kuzatish davrlari va tartibi. Kuzatish asboblari, kuzatish natijalarini qayd etish usuli va boshqa metodlar tahlil etiladi.
M29.	**Fundamental va amaliy sotsiologiya.** Ushbu ma'ruzada Fudamental sotsiologiyaning maqsadi, Fundamental nazariyalar shakllanishi, fundamental sotsiologiyani fanning strukturasi, mazmuni, kategoriya va tushunchalari, metodlarini o'rganadigan umumsotsiologik muammoni tadqiq qiluvchi tarmoq sifatidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi. Amaliy sotsiologiya doirasida nazariy va metodologik muammolar bilan birgalikda, protsedura va metodik muammolar tahlil etiladi. Shuningdek, sotsiologiyaning maxsus va tarmoq yo'nalishlari, sanoat sotsiologiyasi, deviant xulq-atvor sotsiologiyasi va jamoatchilik fikri sotsiologiyasi kabilar haqida ma'lumotlar beriladi.
Jami	**26 soat ma'ruza**
	III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: (S)
	Sotsiologiya I qism
S1.	Sotsiologiyaning fan sifatida shakllanish tarixi (4 s)
S2.	Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari
S3.	Sotsiologiyaning obyekti va predmeti (4 s)
S4.	Sotsioogiyaning qonunlari
S5.	Sotsiologiya strukturasi (4 s)
S6.	Sotsiologiyaning alohida tarmoqlari
S7.	Sotsiologiyaning funksiyalari
S8.	Jamiyat yaxlit tizim sifatida
S9.	Jamiyatning turkumlari va tasniflari
S10.	Zamonaviy jamiyatning sotsiomadaniy munosabatlari muammolar
S11.	Sotsial guruhlar va birliklar (4 s)
S12.	Sotsial institutlar

S13.	Sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta'lim, huquq va boshqalar
S14.	Shaxs sotsiologiyasi
S15.	Deviant xulq-atvor
S16.	Sotsial nazorat
Jami	**40 soat seminar**
	Sotsiologiya II qism
S17.	Sotsial me'yorlar va jamoatchilik fikri
S18.	Jamiyat sotsial strukturasi
S19.	Sotsial stratifikasiya nazariyasi
S20.	Sotsial mobillik (harakatchanlik) va marginallik nazariyalari
S21.	Sotsial munosabatlar tushunchasi va turlari
S22.	Sotsial munosabatlar tizimida plyuralizm, notenglik va tenglikning amal qilishi
S23.	Sotsial barqarorlik va inqiroz — jamiyatning muhim sotsial munosabatlari
S24.	Ijtimoiy taraqqiyot sosiologiyasi
S25.	Sotsial menejment va uning xususiyatlari
S26.	Globalizm sotsial hodisa sifatida. O'zbekistonning globalizm sharoitida rivojlanishi
S27.	Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari
S28.	Sotsiologiyadagi ma'lumotlarni to'plash metodlarining umumiy tasnifi
S29.	Fundamental va amaliy sotsiologiya
Jami	**26 soat seminar**

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
"Ijtimoiy falsafa" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1.	Sotsiologiyaning fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2.	Ogyust Kont — pozitiv sotsiologiya asoschisi.
3.	Sotsiologiyaning obyekti va predmeti.
4.	Sotsiologiyaning qonunlari.
5.	Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari.
6.	Sotsiologik bilimlar struktnrasi tushunchasi.
7.	Makrosotsiologiya, mikrosotsiologiya va umumiy sotsiologiya.
8.	Sotsiologiyaning alohida tarmoqlari.
9.	Sotsiologiyaning funksiyalari.
10.	Jamiyat tizimli tuzilma sifatida.
11.	G'arb sotsiologiyasi asoschilari ijtimoiylik haqida.
12.	Davlat, siyosat va jamiyat
13.	Jamiyatning turkumlari va tasniflari.
14.	Zamonaviy jamiyatning sotsiomadaniy munosabatlari muammolari.
15.	Sotsial guruhlar tasnifi
16.	Kvaziguruhlar va ularning turlari
17.	Guruhiy dinamika va kichik guruh o'lchamlari
18.	Guruhiy psixoterapiya, guruhdagi yetakchilik va avtoritet tavsiflari
19.	Sotsial birliklar
20.	Yoshlar orasida konfliktlarning o'ziga xos xususiyatlari
21.	Sotsial institutlar va ularning jamiyatdagi o'rni
22.	Sotsial institutlarning strukturasi va funksiyalari
23.	Iqtisodiy institutlar

24.	Oila va nikoh sotsial institute
25.	Ta'lim sotsial instituti.
26.	Din sotsial instituti.
27.	Shaxs rivojlanishining asosiy omilari.
28.	Shaxsning o'zini o'zi anglashi va Men-konsepsiyaning shakllanishi
29.	Shaxs turlarining tasniflanishi.
30.	Shaxs maqomi, roli va uning sotsiallashuvi
31.	Deviant xulq-atvor sotsiologiyaning mubim tadqiqot obyekti sifatida
32.	Deviant xulq-atvor turlari.
33.	Sotsial nazorat.
34.	Sotsial me'yorlar va jamoatchilik fikri.
35.	Jamiyatning sotsial strukturasiga doir dastlabki nazariy qarashlar.
36.	Jamiyat sotsial strukturasi tushunchasi va uning talqinlari.
37.	Sotsial stratifikatsiya.
38.	Sotsial harakatchanlik va marginallik.
39.	Jamiyat sotsial strukturasining rivojlanishida yangi tamoyillar
40.	.Sotsial munosabatlar tushunchasi va ularning talqinlari.
41.	Sotsial munosabatlarning turlari.
42.	Klassik olimlar va ekszenstensializm tarafdorlari jamiyatdagi begonalashuv to'g'risida.
43.	Sotsial munosabatlar tizimida plyuralizm, notenglik va tenglikning amal qilishi.
44.	Sotsial barqarorlik va inqiroz — jamiyatning muhim sotsial munosabatlari.
45.	Sotsial taraqqiyot tushunchasi va uning turlari.
46.	Modernizatsiya — zamonaviy sotsial rivojlanish sifatida.
47.	O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratiyalashuvi sotsial taraqqiyot sifatida.
48.	Sotsial taraqqiyotni boshqarish. Sotsial menejment va uning xususiyatlari.
49.	Globalizm sotsial hodisa sifatida. O 'zbekistonning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida rivojlanishi
50.	Sotsiologik tadqiqot dasturi.
51.	Kuzatish metodi va uning mohiyati.
52.	Sotsiologik so'rovlar metodlari.
53.	Hujjatlarni sotsiologik tahlil etish metodi.
54.	Eksperiment metodi va uning turlari.

Sotsiologiya fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Talabalarni jahon sotsiologlari va ularning sotsiologik ta'limotlari bilan tanishtirish, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining Vatan va jahon madaniyati, sotsiologiya fanining rivojlanishidagi hissasi, o'rnini ma'naviy-mafkuraviy qurollantirish. Sotsiologiyaning mazmuni, vujudga kelishi, konsensus va konpromis tushunchasi, uning mohiyati singari noan'anaviy fikrlashga ko'maklashish antik davr, o'rta asrlar va yangi davr sotsiologik bilimlarini rivojlanishi va ularning hozirgi ijtimoiy-gumanitar bilimlar haqida tasavvurga ega bo'lishi.

Talabalar sotsilogik fikrlar taraqqiyoti jarayonini yaxlit tarzda tasavvur qila olishi, ayni paytda sotsiologiya fanining turli yo'nalishlardagi nazariy-metodologik asoslari, fanning asosiy tushuncha, kategoriyalari va qonunlari shaxs va uning ijtimoiylashuv jarayoni, sotsial guruhlar tasnifi, jamiyat a zolarining ijtimoiy mavqesi, haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Shuningdek Turli ijtimoiy-madaniy xususiyatda kechayotgan hodisalarni holis qiyosiy taqqoslash, zamonaviy jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolardan ustuvorlarini aniqlash va ularni ob'ektiv tahlil qilish, muayyan hodisa va voqealarga kishilarning shaxsiy munosabatlarini o'rganishga qaratilgan emprik tadqiqotlarda ishtirok etish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma naviy sohalarda o'tkazilgan amaliy sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalana olish

	ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • sotsiologiya fanining mustaqil fan sifatida shakllanishi omillari, uning tadqiqot ob'ekti va predmeti, strukturasi va fanlar tizimidagi o'rni, jamiyatni yaxlit ijtimoiy tizimligi, shaxs va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy hayotning dolzarb muammolari, jamiyat a'zolarining shaxsiy va ijtimoiy faoliyatini muvofiqlashtiradigan sotsial institutlar faoliyati haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba sotsiologiya fanining turli yo'nalishlardagi nazariy-metodologik asoslari, fanning asosiy tushuncha, kategoriyalari va qonunlari, shaxs va uning ijtimoiylashuv jarayoni, sotsial guruhlar tasnifi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqesi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechishi, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarning o'zaro bog'liqlikda ekanligini yaxlit idrok etishi hamda jamiyat rivojining asosiy omillarini tasniflay olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnoligiyalari va metodlari:** ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; "KHWL" metodi; "SWOT" tahlil metodi va boshqa interfaol metodlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. X.B.Saitxodjayev. Sotsiologiya. Darslik. T: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2017. 2. O.Sh.Xodjayev. "Sotsiologiya" fanidan qo'llanma. Toshkent. 2021 3.N. S. Alıqoriyev, R.T. Ubaydullayeva. Umumiy sotsiologiya. T – 1999. 4. 4. E.Giddens Sotsiologiya.-Toshkent. O'qituvchi, 2002 5.6. Normurodov B., Normurodova G.B. Sotsiologiya tarixi. "Tafakkur" nashriyoti. T.2010. **Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar** 1. Mirziyoyev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2017 2. Mirziyoyev Sh.M.Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining farovi. T. O'zbekiston nashriyoti. 2017. 3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2017 4. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. 2017 5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T., 2003 yil 6. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk. - T., "Adolat", 1997 yil 7. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga.-T., 2002yil 8. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi.T 2003 **Elektron ta'lim resurslari** 1. www.tdpu.uz

	2. www.pedagog.uz 3.www. ziyonet.uz 4. tdpu-internet.ped.
7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv usluhiy Kengashining 2024 yil "___" _____dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ul:** I.Negmatov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti
9.	**Taqrizchilar:** **M.J.Bozorov** – Samarqand davlat chet tillar instituti Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi professori v.b (tashqi) **M.B.Sherov** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti. (ichki)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Normamatova

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi mudiri — **dots.I.Negmatov**

Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti,dekani — **prof. A.Q.Aymatov**

SamDU o'quv ishlari Bo'yicha prorektor — **prof. A.Soleev**

Sharof Rashidov nomdagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy- siyosiy fanlar fakulteti, Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti I.Negmatov tomonidan tayyorlangan 60920100-Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Sotsiologiya" o'quv fani dasturiga

Taqriz

Sotsiologiya- insoniyatning bir necha yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi yisoblanadi.

Sotsiologiya-lotincha,, sotsiatos"-jamiyat va yunoncha logos"-ta'limot, tushunchalarining birligidan tashkil topgan bo'lib, jamiyatning dinamik rivojlanishi haqidagi, jamiyat tarkibiga kiruvchi alohida institutlar, tizimlar, guruhlar va ular orasidagi ijtimoiy munosabatlar to'q'risidagi fandir. 19-asrning 30-yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kontsotsiologiya" atamasini fanga kiritdi. Ogyust Kontning fikricha, sotsiologiya bir butun organizm hisoblangan jamiyat haqidagi barch bilimlarni birlashtirish va dalillarni izchil o'rganish orqali unga ilmiy asos berishi kerak. qo'yadi: Shuning uchun ham, sotsiologiya o'z oldiga quyidagi vazifalarni-jamiyatni bir butun tizim sifatida o'rganish, -jamiyatni ilmiy vositalar orqali yordamida o'rganish; -ijtimoiy munosabatlarni o'rganish. Demak, sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi fan bo'lib, ijtimoiy munosabatlar, ularning amal etish qonuniyatlari hamda istiqbollarini o'rganadi.

Dasturda sotsiologik qarashlarning rivojlanish bosqichlarini talabalarga tanishtirish o'z aksini topgan. Shuningdek, dasturda sotsiologiya fanining ob'ekti va predmetini tahlil qilish jarayonida ko'zga ko'ringan sotsiologlarni fikrlari bilan tanishtirish joy olgan.

Ushbu fan dasturini talabalani sotsiologiyaning asosiy tushuncha va qonunlari, uning fanlar tizimidagi o'rni va roli, umumiy va maxsus sotsiologik nazariyalar, sotsiologiyani strukturasi, shaxsning ijtimoiylashuvi va shaxs ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida kabi masalalarni mohiyatini ochib berish hamda talabalar ongiga singdirishni maqsad qilib quyilgan. Dasturda mustaqillik sharofati bilan bu fanni o'qitishga alohida e'tibor berilganligi diqqatga sazovorligi ta'kidlangan.

Umuman olganda dastur falabalarni sotsiologiya fanini har tomonlama chuqur o'rganishga yordam beradi. Albatta, ushbu o'quv dasturining o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Mavzularni yanada kengroq ko'rinishda ko'paytirish zarur deb hisoblayman. Ammo, yuqoridagi kamchilik yaratilgan fan dasturining mohiyati va mazmuniga ts'sir etmaydi. Shuning uchun ushbu fanning o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy boshqarmaga tasdiqlash uchun tavsiya qilaman.

Samarqand davlat chet tillar instituti,
Gumanitar fanlar va axborot
texnologiyalari" kafedrasi dosenti **Bozorov M.J.**

Sharof Rashidov nomdagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy- siyosiy fanlar fakulteti, Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti I.Negmatov tomonidan tayyorlangan 60920100-Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Sotsiologiya" o'quv fani dasturiga

Taqriz

Zamonaviy ijtimoiy hayotning murakkab hodisa va jarayonlarini ilmiy tushunish, amaliy faoliyatda sosiologik bilim va metodlardan foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.

- sotsiologiya fani obyekti, predmeti, asosiy tushuncha va kategoriyalarini mohiyatini tushuntirish;
- sotsiologiyaning jamiyat hayotidagi o'rni, funksiyalari, ahamiyati to'g'risida batafsil ma'lumot berish;
- zamonaviy sotsiologiyadagi asosiy maktab va yo'nalishlar bilan tanishtirish
- sotsiologiya fanining asosiy qonun va tamoyillarini umumiy va xususiy jihatlarini ko'rsatib berish;
- amaliy sosiologik tadqiqot metodlari va dasturi to'g'risida muayyan tassavvur uyg'otish;
- shaxs, sosial guruh, sosial jamoalarga xos belgi va xususiyatlar hamda ularning mohiyatini ochib berishi;
- sosial struktura, sosial stratifikasiya, sosial mobillikning mohiyati va mazmunini ochib berish orqali talabalarga jamiyatda bo'layotgan sosial jarayon, hodisalarni ilmiy tahlil etish zaruriyatini singdirish fanning asosiy maqsadidir.

Dasturda sotsiologik qarashlarning rivojlanish bosqichlarini talabalarga tanishtirish o'z aksini topgan. Shuningdek, dasturda sotsiologiya fanining ob'ekti va predmetini tahlil qilish jarayonida ko'zga ko'ringan sotsiologlarni fikrlari bilan tanishtirish joy olgan.

Ushbu fan dasturini talabalani sotsiologiyaning asosiy tushuncha va qonunlari, uning fanlar tizimidagi o'rni va roli, umumiy va maxsus sotsiologik nazariyalar, sotsiologiyani strukturasi, shaxsning ijtimoiylashuvi va shaxs ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida kabi masalalarni mohiyatini ochib berish hamda talabalar ongiga singdirishni maqsad qilib quyilgan. Dasturda mustaqillik sharofati bilan bu fanni o'qitishga alohida e'tibor berilganligi diqqatga sazovorligi ta'kidlangan.

Umuman olganda dastur falabalarni sotsiologiya fanini har tomonlama chuqur o'rganishga yordam beradi. Albatta, ushbu o'quv dasturining o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Mavzularni yanada kengroq ko'rinishda ko'paytirish zarur deb hisoblayman. Ammo, yuqoridagi kamchilik yaratilgan fan dasturining mohiyati va mazmuniga ta'sir etmaydi. Shuning uchun ushbu fanning o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy boshqarmaga tasdiqlash uchun tavsiya qilaman.

Samarqand davlat universiteti
Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti **Sherov M.B.**

PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI